



XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Ish haqi. 2023- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


*(2023- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m</i>		<i>O‘sinh sur‘ati, %</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
Xorazm viloyati - jami:	2928,9	3596,6	122,8
<i>shu jumladan:</i>			
Urganch.sh.	3871,5	4812,5	124,3
Xiva.sh.	2406,9	2926,5	121,6
Bog‘ot	2353,2	3002,9	127,6
Gurlan	2270,2	2660,4	117,2
Qo‘shko‘pir	2291,1	2829,2	123,5
Urganch	2532,0	3145,2	124,2
Hazorasp	2220,5	2705,8	121,9
Tuproqqal’a	4206,1	4997,2	118,8
Xonqa	2546,3	2930,0	115,1
Xiva	2399,9	2849,0	118,7
Shovot	2295,5	2810,0	122,4
Yangiariq	2877,5	3432,3	119,3
Yangibozor	2091,5	2487,1	118,9

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Tuproqqal’a tumanida 4 997,2 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 138,9 %), Urganch shahrida 4 812,5 ming so‘mni (133,8 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 487,1 ming so‘mni (69,2 %), Gurlan tumanida 2 660,4 ming so‘mni (74,0 %), Hazorasp tumanida 2 705,8 ming so‘mni (75,2 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.


Tumanlar kesimida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-iyunda qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming soʻm)



Tumanlar kesimida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-iyun oylarida qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming soʻm)




Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,
ming so'm)


Sohalar nomi	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm (yanvar- iyun)		O'sish sur'ati, %
	2022- yil	2023- yil	
Xorazm viloyati - jami:	2928,9	3596,6	122,8
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	3342,1	4069,9	121,8
Qurilish	2804,2	3656,3	130,4
Savdo	2204,4	2759,9	125,2
Tashish va saqlash	6397,6	6919,7	108,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1777,8	2152,5	121,1
Axborot va aloqa	3717,1	7157,2	192,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	7918,2	10163,6	128,4
Ta'lim	2386,0	2860,7	119,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2511,1	3190,3	127,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2167,3	2626,7	121,2
Boshqa faoliyat turlari	3223,2	4062,4	126,0

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2023- yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 596,6 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 22,8 % ga o'sishi kuzatildi. 2023- yil yanvar- iyun oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqada tashish va saqlash faoliyatida 92,5 %, qurilishda – 30,4 %, moliyaviy va sug'urta faoliyatida– 28,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 27,0 %, savdoda – 25,2 %, sanoatda – 21,8 %, san'at, ko'ngil ochish va dam olishda – 21,2 % va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 21,1% darajada kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘shish sur‘ati
(2023- yil yanvar-iyunda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar-iyun oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2023- yil yanvar-iyun oylarida sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4069,9 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu davr 2019 -yilda 2432,6 ming so'mni, 2020 -yilda 2551,0 ming so'mni, 2021 -yilda 2864,3 ming so'mni, 2022- yilda 3342,1 ming so'mni tashkil qilgan va otgan yillarga nisbatan 167,8 % darajada kopaygani kuzatildi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



4015,3

*Ishlab chiqarish
sanoati*



2069,8

*Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish
va utilitatsiya qilish*




5650,6

*Elektr, gaz, bug'
bilan ta'minlash va
havoni konditsiyalash*


Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha 2023- yil yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik ish haqi, ishlab chiqarish sanoatida - 4015,3 ming so'mni, suv bilan ta'minlash,kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda -2069,8 ming so'mni, elektr, gaz,bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda -5650,6 ming so'mni tashkil qilgani ko'rsatilgan.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni

(2023- yil yanvar-iyun, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)




Qurilish sohasida oʻrtacha oylik ish haqi



3656,3 **yanvar- iyun**
ming soʻm



Qurilish sohasida oʻrtacha oylik ish haqining yanvar-iyun oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



**Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni,
nominal hisoblangan ish haqi, o'rtacha oylik ish haqi.**

(2023- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

<i>Sohalar nomi</i>	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mln so'm</i>	<i>Ortacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
	<i>2023- y.</i>	<i>2023- y.</i>	<i>2023- y.</i>
Xorazm viloyati – jami:	138 602	2 990 974,2	3 596,6
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	19 926	495 780,0	4 069,9
Qurilish	952	28 892,9	3 656,3
Savdo	1 139	19 248,0	2 759,9
Tashish va saqlash	3 874	161 151,3	6 919,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	65	839,5	2 152,5
Axborot va aloqa	883	38 550,7	7 157,2
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 665	173 091,0	10 163,6
Ta'lim	63 704	1 112 027,3	2 860,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25 573	493 492,3	3 190,3
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 962	31 399,6	2 626,7
Boshqa faoliyat turlari	17 859	436 501,6	4 062,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, **Sanoatda** -19 926 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 495 780,0 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 069,9 ming so'mni, **Qurilishda** - 952 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 28 892,9 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 656,3 ming so'mni, **Savdoda** -1 139 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 19 248,0 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 759,9 ming so'mni, **Tashish va saqlashda** – 3 874 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 161 151,3 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 919,7 ming so'mni, **Axborot va aloqada** -883 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 38 550,7 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 157,2 ming so'mni, **Moliyaviy va sug'urta faoliyatida** -2 665 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 173 091,0 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 10 163,6 ming so'mni, **Ta'limda** -63 704 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 112 027,3 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 860,7 ming so'mni, **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 573 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 493 492,3 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 190,3 ming so'mn tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida 2023-yilning yanvar-iyunida o'rtacha oylik ish haqi




Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)
(2023-yil yanvar-iyunda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>	<i>Viloyatga nisbatan foizda</i>
Xorazm viloyati	2 860,7	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Urganch. sh	4 086,1	142,8
Xiva. sh	2 728,2	95,4
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	2 812,8	98,3
Gurlan	2 438,0	85,2
Qo'shko'pir	2 494,9	87,2
Urganch	2 608,6	91,2
Hazorasp	2 511,6	87,8
Tuproqqal'a	2 415,2	84,4
Xonqa	2 760,6	96,5
Xiva	2 567,5	89,8
Shovot	2 567,9	89,8
Yangiariq	3 095,6	108,2
Yangibozor	2 343,3	81,9

Ta'lim sohasida jami 63 704 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,0 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 860,7 ming so'mni tashkil etgan va 2022- yilning mos davriga nisbatan 19,9 % ga o'sdi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)

(2023-yil yanvar-iyunda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Ta'limda shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 4 086,1 ming so'mni (viloyatdagi ta'limning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 142,8 %), Yangiariq tumanida 3 095,6 ming so'mni (108,2 %) tashkil etgan bo'lsa, Yangibozor tumanida 2 243,3 ming so'mni (81,9 %), Tuproqqal'a tumanida 2 415,2 ming so'mni (84,4 %), Gurlan tumanida 2 438,0 ming so'mni (85,2 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.